

**“TA'LIM AL-MUTAALLIM” ASARIDAGI TARIXIY SHAXSLAR
VA ULARNING HAYOTIDAGI O‘RNAK BO‘LADIGAN JIHATLAR**

*To'rayev Davronbek Rayimberganovich,
tadqiqotchi.*

Annotatsiya. *Burhoniddin az-Zarnujiyning "Ta'lim al-mutaallim" asari, ta'lim jarayonining ijtimoiy-madaniy kontekstda qanday shakllanganini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Ushbu asar, ilmiy rivojlanish va o'z ustozlari bilan bog'liq fikrlar orqali ta'lim olishning muhim jihatlarini yoritadi. Zarnujiy, o'z asarida ko'plab mashhur olimlar va ularning ibratli so'zlarini keltirib, o'quvchilarga ilm olishga rag'bat beradi. Asar hanafiy mazhabi olimlarining fikrlarini ham o'z ichiga olgan holda, ta'limning uzluksizligi, dars yuklamasi, sifat va tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Zarnujiy, ustoz-shogird munosabatlarining ahamiyatini, ta'lim sifatini oshirish va ilm olish jarayonida zamonaviy pedagogika bilan bog'liq muammolarni yoritadi.*

Kalit So'zlar: *Burhoniddin az-Zarnujiy, Ta'lim al-mutaallim, Pedagogika, Ustoz-shogirdlik, Ilm olish, Hanafiya mazhabi, Ijtimoiy-madaniy kontekst, Ta'lim jarayoni, Ta'lim sifat, Tarbiya.*

Biror asar ilmiy jihatdan o'rganilsa, uning yozilishiga o'sha davrning ijmoiy-madaniy muhiti ta'sir qilgani, kimningdir taklifi yoki sohaga doir olimning kitobi turtki bo'lgani ayon bo'ladi. Aksar holatlarda, u o'ziga boshqa manbalarni asos qilib olgani ham oydinlashadi. Zero, mazkur omillarlar uning sohasidagi ilmiy darajasi va ahamiyatini belgilashda muhim mezonlardan sanaladi. Shunday ekan, “Ta'lim al-mutaallim”ni ham ayni shu jihatdan tadqiq etish mazkur holatni aniqlashga xizmat qiladi.

Burhoniddin az-Zarnujiyning “Ta'lim al-mutaallim” asarida yetmish to'qqizta shaxs nomi “ism”, “laqab” yoki “kunya” shaklida keltirilgan. Olim asarida o'zidan oldin yashagan shaxslar bilan bir qatorda zamondoshlarining, ya'ni, o'z ustozlarining ham ibratli so'zlarini keltirib mavzularni dalillashga harakat

qilgan. Xususan, Burhoniddin az-Zarnujiy “Ta’lim al-mutaallim”da Sadiduddin Aburrizo Muhammad ibn Mahmud ibn Ali ibn Abu Ali al-Husayn ibn Yusuf at-Tiroziy (499-570/1105-1175), Abu-l-Mahosin Imomzoda Muhammad ibn Abu Bakr ibn Ibrohim ibn Sobir al-Cho‘g‘iy as-Samarqandiy ash-Sharg‘iy al-Buxoriy (491-573/1098-1177), Abu-l-Mahomid Qivomuddin Hammod ibn Ibrohim ibn Ismoil as-Saffor al-Ansoriy al-Buxoriy (493-576/1099-1181), Faxruddin Qoziyxon Faxr al-islom Hasan ibn Mansur ibn Mahmud al-O‘zjandiy al-Farg‘oniy (vaf. 592/1196), Faxriddin Ahmad ibn Muhammad ibn Mahmud ibn Sayyid al-G‘aznaviy al-Koshoniy (vaf. 593/1196), Rukniddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Abu Bakr ibn Yusuf al-Farg‘oniy (vaf. 594/1198), Sharafuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad al-Aqiliy (vaf. 596/1200) va Raziyyuddin Abulhasan al-Muayyid ibn Muhammad ibn Ali at-Tusiy an-Naysoburiy (524-617/1130-1220) kabi ustozlari nomlarini zikr qilgan. Bu esa, asarning yo‘nalishidagi ahamiyati kattaligini anglatadi. Xususan, u hanafiy mazhabi ulug‘ imomlarining nomlarini va ilm bilan bog‘liq fikrlarini keltiradi. Har bir masalaga ular hayotidan olingan qisqa hikoyatlar bilan o‘quvchini ilm olishga targ‘ib qilib boradi. Mazkur hikoyatlarning ayrimlari boshqa manbalarda uchramasligi, ular olimlarning hayotiga oid muayyan aniqliklarni belgilab berishi, muallifning o‘z ko‘rgan-kechirganlari va voqilikdan olinganligi bilan ham ahamiyatli va ishonchlidir.

“Ta’lim al-mutaallim” asarida buyuk islom faylasufi “Hujjat al-islom” unvoniga sazovor bo‘lgan alloma Muhammad al-G‘azzoliy (450-505/1058-1111) asarlari ta’siri sezilib turadi. Ayniqsa, u Muhammad al-G‘azzoliyning “Fotihat al-ulum” asari ruhida yozilgan deyish mumkin. Imom al-G‘azzoliyning “Ayyuha-l-Valad”, “Me’yor al-ilm”, “Riyoziyat as-sibyon”, “Mezon al-amal”, “Risola fi ta’lim al-mutaallim” nomli asarlari ham shu mavzuga oiddir. Biroq, “Ta’lim al-mutaallim”da keltirilgan nomlar orasida Burhoniddin az-Zarnujiyning o‘z ustozlari, zamondosh va avval o‘tgan hanafiy olimlarining nomlari uchraydi. Ularning ko‘pchiligi shoir ham bo‘lganligi, eng muhimi, ba’zi olimlarning, masalan, Abu Hafs an-Nasafiy, Burhoniddin al-Marg‘inoniy kabilar yozgan she’rlarning asarda ilk bor keltirilishidir. Bularning she’r yozganlari, ularning

she'rlari hatto ko'pchilik tadqiqotchilarga yangilikdir. Asarning yana bir muhim jihati shundaki, unda hanafiy mazhabiga nisbatan bo'lgan muhabbat ufurib turadi. Asarda tilga olingan oltmish nafarga yaqin hanafiya mazhabiga amal qiluvchi faqih ajdodlar haqidagi qisqa ma'lumotlar juda muhimdir. Bu narsalar "Ta'lim al-mutaallim" asarini o'rganishning, tadqiq etishning ahamiyatini yanada oshiradi.

Har bir jamiyatning rivojidadagi asosiy omil bu – o'sha diyorda ilm va olimlarning qadrlanishidir. Zero, ushbu tadqiqot jarayonida "Ta'lim al-mutaallim" asarida zamonaviy pedagogigadagi asosiy dolzarb muammolar ham tahlil qilinganini ma'lum bo'ldi. Zotan, Burhoniddin az-Zarnujiy faqat muammoni sanash bilan kifoyalanmasdan, unga dalillar, xususan o'z ustozlarining tajribalari asosida yechim ham taklif qilgan. Bu esa, masalaga nazariy jihatdan emas, amaliy tomondan yodashganiga dalolat qiladi va u nisbatan kuchliroq taklif hisoblanadi. Ayni shu jihatdan, olimning ustozlari va zamondoshlari fikrlariga e'tibor qaratiladi.

Shamsulaimma al-Halvoniy (vafoti 452/1060) o'z ishi bilan Buxorodan chiqib, qishloqlarga chiqib ketdi. U kunni qishloqda o'tkazishi kerak edi. Uning o'sha atrofdagi ko'plab shogirdlari Halvoniyning ziyoratiga tashrif buyurishdi. Biroq, faqat Abu Bakr az-Zaranjariy (vaf. V/XI) kela olmadi. Biroz vaqt o'tgach, shogirdi Ebu Bakr az-Zaranjariy bilan uchrashganida, Halvoniy uni ziyorat qilish uchun kelmaganining sababini bilmoqchi bo'ldi. Zaranjariy onasi bilan birga bo'lishi kerakligi, uning yonidan jila olmasligi sababli kela olmasligini aytdi. Shunda Halvoniy shogirdiga: "Umringiz uzoq bo'lishi mumkin, ammo meva topa olmaysiz", dedi. Ya'ni, ilmiy samara va dars to'garagining zavqiga o'xshash mo'l-ko'lchilikni topa olmaysiz, degandi. Natijada, Halvoniyning aytgani ro'yobga chiqdi, Zaranjariy umrining ko'p qismini qishloqlarda o'tkazdi, muntazam ma'ruza to'garagiga ega bo'lmadi va ilmidan foydalana olmadi. Undan juda kam odam foydalandi¹.

Zarnujiy tomonidan shogirdning ustoziga bo'lishi kerak bo'lgan munosabati uchun keltirgan bu misol, davr tushunchasini bugungi kunda ustoz-shogirdlik an'analari qanday aks ettirishi jihatidan juda qimmatlidir.

¹ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallim. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 22.
www.tadqiqotlar.uz

Dars yoshi, yuklamasi va tartibi didaktikaning muhim mavzulari hisoblanadi. Chunonchi, “Ta’lim al-mutaallim” asarida ta’limning boshlanish yosh chegarasi alohida qaydlanmagan. Lekin, olim bu borada shunday degan: “Talaba o‘smirlik kunlarini, yoshlik paytining ilk davrlarini g‘animat bilishi kerak”². Zamonaviy pedagogikada ham yoshlikda ta’lim olish afzal va samarali bo’lishi ta’kidlangan. Shunga ko’ra, olimning asarda bildirgan fikrlari quvvatlidir.

Asarda dars yuklamasi haqida ham muayyan kundalik soat bilan belgilanmasdan, balki bir kunda umumiy o’rganilgan materiallarni ayni shu kun hisobidan takrorlashga nisbatan olingan. Bu borada Burhoniddin az-Zarnujiy otasidan shunday rivoyatni keltirgan: “Ammo, boshlanishda saboqning miqdori haqida mening otam shayx, qoziy, imom Umar ibn Abu Bakr az-Zaranjariy³ (r.h.)dan hikoya qilib aytar edilar: “Mashoyixlarimiz rahimahumulloh aytishganki, yangi dars boshlagan talaba uchun saboq miqdori (kunlik) saboqni ikki marta qaytarganda (takror qilib) to’liq o’zlashtirish mumkin bo’ladigan miqdorda bo’lishi kerak. Mana shuni har kuni muloyimlik ila bir kalimadan asta-sekin ko’paytirib boradi. Hatto, uzayib, ko’payib ketganda ham ikki marta qaytarish bilan o’zlashtirish mumkin bo’lsin. Agar saboq boshlanishdayoq uzun bo’lib, o’n marta qaytarishga muhtoj bo’linsa, u intihoda ham shundoq bo’lib qoladi. Chunki, u shunga odatlanib boradi. Bu odatini esa tark qilolmay qoladi, faqat ko’p harakat (mashaqqat) bilan tark etish mumkin”⁴.

Ushbu fikr asosida, bugungi kundagi ta’limdagi ayni muammoni tahliliy jihatdan o’rganish mumkin. Zero, har bir insonning aqliy salohiyati va qobiliyati tabiatan turlichadir. Bu holatda, olim taklif qilgan fikr har bir shaxsga individual yondashishni taqozo etadi va u masalaga real yechim berishi mumkin.

Dars tartibi ham pedagogikadagi ahamiyatli va dolzarb masala sanaladi. Shuning uchun ham, olim ushbu masalaga alohida to’xtalgan bo’lsa-da, faqat o’zining fikrini keltirish bilan kifoyalangan: “Tolibi ilm darsini sanoq qilishi kerak

² Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta’lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 24.

³ Shams al-aimma Imodiddin Umar ibn Abu Bakr az-Zaranjariy (495-584/1102-1188) hanafiy olimi. Bu zotni o’z davrida “No’mon as-soniy” deyishardi. Otasi Abu Bakr az-Zaranjariy (r.h.)dan ta’lim olgan. “Ta’lim al-mutaallim”ning ba’zi nusxalarida “az-Zarnujiy” va “az-Zaranjiy” nisbasi bilan berilgan.

⁴ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta’lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 24.

bo'ladi. Takrorda biror miqdorni o'ziga belgilab olsin. Ana shunda, takror mana shuncha miqdorga yetguncha qalbi qaror topmaydigan bo'ladi. Kechagi saboq 5 marta, kechadan oldingi saboqni 4 marta, undan oldingi saboqni 3 marta, undan oldingisini esa 2 va undan ham oldingisini bo'lsa 1 marta takrorlab qo'yish kerak. Mana shu (haqiqiy) takrorga va hifzga imkonliroqdir. Takrorda maxfiylikka (ya'ni, ichidan o'qishga) odatlanib qolmaslik lozim. Chunki, dars va takror quvvat va zavq bilan bo'lmog'i kerak. Jonini qiynaydigan darajada baland qilmasin, toki takrordan va zavqu shavqdan to'xtab qolmasin. Demak, ishlarning yaxshisi o'rtachasidir"⁵. Bu o'rindagi asosiy masala, muayyan fan sohasi mavzulari bo'yicha berilgan ma'lumotlarni o'zaro bog'lagan holda puxta o'zlashtirish uchun keltirilgan.

Pedagogikadagi muhim masalalardan yana biri bu – ta'lim sifatidir. Zero, bu masala bir nechta obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq. Shulardan biri ma'lumotlarning o'rganuvchi tomonidan konspekt qilinishidir. Zamonaviy sohaga oid tadqiqotlarda ham o'rganilayotgan ma'lumotlarni yozib borish nisbatan ularni inson xotirasida ko'proq saqlanishiga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Manbadagi rivoyatlar tahlili esa, mazkur masala muallif yashagan davrgacha ham alohida ta'kidlab kelinganiga ishora qiladi. Jumladan, olim shunday rivoyat naql qilgan: "Isom ibn Yusuf⁶ (r.h.) darhol eshitganini yozib olish uchun dinorlab qalam sotib olardilar. Zero, umr qisqa, ilm esa ko'pdir. Bas, shunday ekan, vaqtlarni va soatlarni zoye' qilmaslik kerak, kechalarni, xoli joylarni g'animat bilmoq kerak"⁷.

Burhoniddin az-Zarnujiy hanafiy mazhabining mashhur faqih, buyuk alloma "Hidoya" kitobining sohibi Burhoniddin al-Marg'inoniyning⁸ shogirdi bo'lgan. Jumladan, u Shayxulislom Burhoniddin al-Marg'inoniydan quyidagi rivoyatni keltirgan: "Buxoroning ulug' imomlaridan biri (qaysidir) dars majlisida

⁵ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 42-43.

⁶ Abu Ismat Isom ibn Yusuf ibn Maymun ibn Qudoma al-Balxiy (vaf. 210/825) Balxning eng e'tiborli hanafiylaridan bo'lgan. Abu Yusuf, Abdulloh ibn Muborak va So'fyon as-Savriy rahimahumulloh kabilarning shogirdi bo'lgan.

⁷ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 51.

⁸ Abulhasan Burhoniddin Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil ar-Rishdoniy al-Marg'inoniy al-Farg'oni (511-593/1117-1197) eng mashhur hanafiy faqihlaridan biri. U mashhur faqih, hofiz, muhaddis, mufasssir, bo'lib usul al-fiqh, adabiy ilmlarda ham tanilgan. Olim "al-Muntaqo", "Nashr al-mazhab", "at-Tajnis va-l-mazid", "Muxtorot an-Navozil", "Kitob fi-l-faroyiz" singari asarlari ham bo'lgan. Avvaliga "al-Bidoyat al-mubtadiy" degan kitob yozib, unga "Kifoyat al-muntahiy" degan sharh yozadi. Keyin uni qisqartirib "al-Hidoya"ni ta'lif qilgan. Uning "al-Hidoya", "al-Majmu' al-Usmoniy" ("Kitob fi-l-faroyiz"), "at-Tajnis va-l-mazid" va "Muxtorot an-Navozil" asarlari o'zbek tiliga qisman tarjima qilingan.

o'tirganlarida, dars orasida ba'zan o'rinlaridan tik turib o'tirar ekanlar. Shu haqida undan so'rashibdi. U zot: "Ustozimning o'g'li bolalar bilan ko'chada o'ynab yuribdi. Ahyonda masjid eshigiga kelib ketardi. Uni har ko'rganimda ustozimning ta'zimi uchun unga o'rnimdan turardim", debdilar"⁹. Burhoniddin az-Zarnujiy ushbu fikrni shogird o'z ustozini va uning qorindoshlarini ham hurmat qilishi lozimligiga dalil sifatida keltirgan. Zero, bu ish nafaqat ustoz va shogird o'rtasigadi ilmiy muhitni, balki ijtimoiy holatning yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Ilm olishdagi muhim masalalaradan bir bu – o'rganish uchun sohaga doir manbani tanlash hisoblanadi. Zero, birinchidan muayyan sohaga oid turli manbala mavjud, ikkinchidan ularning hammasi ham ilmiy jihatdan xolis yondashuvda yozilganiga shubha bor. Shunga ko'ra, talabaga qaysi manba o'rganish uchun birlamchi ekanini belgilash maqsada muvofiq emas va bu ishni ustoziga havola qilsin. Chunki, ustoz bu borada yetarlicha tajribalarga ega bo'ladi. Har bir talaba uchun nima muvofiqligini va tabiatiga nima loyiqqligini ustoz biladi. Olim ayni masalada ham Burhoniddin al-Marg'inoniyning gapini hujjat sifatida keltirgan: "Avvalgi zamonda talabalar ilm olishda o'z ishlarini ustozlariga topshirar edilar. Shuning uchun murodu maqsadlariga yetar edilar. Hozir esa, o'zlaricha ixtiyor qiladilar. Shunga ilmdan ham, fiqhdan ham maqsadlari hosil bo'lmaydi"¹⁰. Zero, bu omil zamonaviy ta'lim tizimidagi muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Pedagogikadagi dolzarb mavzulardan biri bu – ta'limning uzviyligidir. Zero, Burhoniddin az-Zarnujiy mazkur masalaga ham alohida e'tibor qaratgan. Jumladan, u yana ustozini Burhoniddin al-Marg'inoniydan naql qilgan: "Tolibi ilm uchun (o'qishi davomiyligida) uzoq tanaffus bo'lmasligi kerak. Zero, u (uzalib qolish) ofatdir. Ustozimiz Shayxulislom Burhoniddin (al-Marg'inoniy) (r.h.): "Men tahsil paytida menga uzoq muddat tanaffus yuz bermaganligi uchun ham o'z sheriklarimdan peshqadam bo'ldim", der edilar"¹¹. Shuningdek, bu borada yana quyidagi rivoyat ham keltirilgan: "As-Sadr ash-shahid Hisomiddin¹² (r.h.) o'g'illari

⁹ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 21.

¹⁰ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 24.

¹¹ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 43.

¹² Husomiddin Umar ibn Abdulaziz ibn Umar ibn Moza al-Buxoriy (483-536/1090-1141) mashhur hanafiy faqih va olimi, Movarounnahrda sadrlik lavozimiga ega bo'lgan va sadrlar oilasining eng ko'zga ko'ringan vakili. U 512/1118 yildan vafotiga qadar sadrlik lavozimida faoliyat yuritgan. Samarqandda Qatavon jangida shahid bo'lgani www.tadqiqotlar.uz

Shamsiddin¹³ (r.h.)ga har kuni ilmu hikmatdan bir narsa (ozgina narsa) yodlashligini, chunki bu oson ekanligini, keyin, yaqinda (o'sha yodlaganlari) ko'p bo'lib ketishligini tavsiya qilganlar"¹⁴. Mazkur ikki rivoyat ham ta'limdagi uzulish uning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligiga dalolat qiladi.

Zamonaviy pedagogikadagi muhim masalalardan yana biri bu – tarbiya sanaladi. Bu holat ham bir jihatdan o'rganuvchining ilmga ishtiyoqiga ta'sir qilsa, ikkinchidan ta'limning sifatiga xizmat qiladi. Bu boradagi asosiy bo'g'in oiladagi tarbiya hisoblanadi. Chunki, tarbiyasiz ta'lim bo'lmaydi. Shuning uchun ham, olim mazkur muammoga e'tibor qaratib, ustoz Burhoniddin al-Marg'inoniydan iqtibos keltirgan: “Ustozimiz Shayxulislom Burhoniddin (al-Marg'inoniy) (r.h.): “Muallimning o'g'li olim bo'ladi, deydi. Chunki, muallim o'z shogirdlarini zamonasida olim bo'lishini xohlaydi. Uning e'tiqodi va shafqatining barakotidan esa, o'z o'g'li ham olim bo'ladi”, der edilar”¹⁵.

Burhoniddin az-Zarnujiy ushbu fikrining amaliy isboti sifatida yan ushbu ustozidan rivoyat keltirgan: “Abulhasan (Burhoniddin al-Marg'inoniy) hikoya qilgan edilar. Buyuk sadr Burhon al-aimma¹⁶ (r.h.) ikkala o'g'li – as-Sadr ash-shahid Husomiddin (r.h.) va as-Sadr as-sa'id Tojuddin (r.h.)ga saboq vaqtini (boshqa shogirdlariga beradigan) jami saboqlardan so'ng katta choshtgoh vaqtiga ta'yinlab qo'ygan edi. U ikkalasi: “Mana shu vaqtda bizning tabiatimiz charchab, malol topib qoladi!” deyishganida, otalari: “Shubha yo'qki, yer yuzining turli tarafidan g'arib musofirlar va ulug' zotlarning bolalari huzurimga kelishadi. Ularning saboqlarini muqaddam qilmog'im lozim!”, degandilar. U zotning mehr-shafqati barakotidan ikkala o'g'li fiqh borasida ana shu asrdagi ko'p shaharlardagi aksar faqihlardan

bois ko'proq “as-Sadr ash-shahid” laqabi bilan tanilgan, “al-Husom ash-shahid” deb ham nomlanadi. Burhoniddin al-Marg'inoniy (r.h.) u zotni ustozlari qatorida sanagan va ehtirom ila tilga olganlar. Husomiddin ash-shahid al-Buxoriy (r.h.)ning “Fatovo as-Sug'ro”, “Fatovo al-Kubro” “Sharh “Adab al-qozi”, “Sharh “al-Jomi' as-sag'ir” va “al-Voqe'ot” nomli asarlari bo'lgan.

¹³ Shamsiddin Muhammad ibn Husomiddin as-Sadr ash-shahid Umar ibn Abdulaziz ibn Umar ibn Moza al-Buxoriy (vaf. 566/1170) hanafiy faqih. Buxoroda mashhur faqihlar sulolasining davomchisi. U zot 552/1157 yilda haj asnosida Bag'dodga safar qilgan. Otasidan hadislar rivoyat ham qilgan.

¹⁴ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-ta'allum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 51.

¹⁵ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-ta'allum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 48.

¹⁶ Abu-l-Mafoxir Abdulaziz ibn Umar ibn Moza al-Buxoriy (vaf. 518/1124) mashhur hanafiy faqih. “Burhoniddin al-kabir”, “Burhon al-aimma”, “Sadri Moziy” nomlari bilan tanilgan. Shams al-aimma as-Saraxsiydan ta'lim olgan. U Buxoroga 495/1101 yilda sadr qilingan va “as-sadr al-kabir”, “as-sadr al-ajall”, “as-sadr al-moziy” nomlari bilan ham shuhrat topgan. Uzoq yillar davomida avlodlari ham ushbu mansabni egallab turganlar. Uning “Sharh al-Jome' as-sag'ir” asari bo'lgan.

ustun bo'ldi"¹⁷. Demak, ushbu holat amaliy jihatdan tahlil qilinganda ham, oiladagi muhit uning a'zolari ma'naviy tomonga ham, moddiy tomonga ham barobar katta ta'sir qiladi. Shu o'rinda, xalq orasidagi "Olmaning tagida olma, Dovchaning tagida dovcha" degan mashhur maqolning¹⁸ ham paydo bo'lishi bejiz emasligi ayon bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Burhoniddin az-Zarnujiy "Ta'lim al-mutaallim" asarini yozishiga o'sha davrning ijmoiy-madaniy muhiti ta'sir qilgan. Aksar holatlarda, u o'ziga boshqa manbalarni asos qilib olgani ham oydinlashadi. Xususan, "Ta'lim al-mutaallim" asarida yetmish to'qqizta shaxs nomi "ism", "laqab" yoki "kunya" shaklida keltirilgan.

Olim asarida o'zidan oldin yashagan shaxslar bilan bir qatorda zamondoshlarining, ya'ni, u Sadiduddin Aburrizo Muhammad ibn Mahmud ibn Ali ibn Abu Ali al-Husayn ibn Yusuf at-Tiroziy (499-570/1105-1175), Abu-l-Mahosin Imomzoda Muhammad ibn Abu Bakr ibn Ibrohim ibn Sobir al-Cho'g'iy as-Samarqandiy ash-Sharg'iy al-Buxoriy (491-573/1098-1177), Abu-l-Mahomid Qivomuddin Hammud ibn Ibrohim ibn Ismoil as-Saffor al-Ansoriy al-Buxoriy (493-576/1099-1181), Rukniddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Abu Bakr ibn Yusuf al-Farg'oniy (vaf. 594/1198), Sharafuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad al-Aqiliy (vaf. 596/1200) va Raziyyuddin Abulhasan al-Muayyid ibn Muhammad ibn Ali at-Tusiy an-Naysoburiy (524-617/1130-1220) kabi ustozlarining ham ibratli so'zlarini keltirib mavzularni dalillashga harakat qilgan. Bu esa, asarning yo'nalishidagi ahamiyati kattaligini anglatadi. Xususan, u hanafiy mazhabi ulug' imomlarining nomlarini va ilm bilan bog'liq fikrlarini keltiradi. Har bir masalaga ular hayotidan olingan qisqa hikoyatlar bilan o'quvchini ilm olishga targ'ib qilib boradi. Mazkur hikoyatlarning ayrimlari boshqa manbalarda uchramasligi, ular olimlarning hayotiga oid muayyan aniqliklarni belgilab berishi, muallifning o'z ko'rgan-kechirganlari va voqilikdan olinganligi bilan ham ahamiyatli va ishonchlidir.

Xullas, Zarnujiy 13 qismda o'z asarini hanafiy faqih nuqtai nazaridan

¹⁷ Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010. – B. 48.

¹⁸ Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – T.: Sharh, 2005. – B. 369.

yozgan. Undan oldin ta'limga oid mustaqil kitoblar yozgan Ibn Sahnun va al-Qobisiy molikiy faqih va imomi sifatida yozganlar. Agar ular Imom Molikka ishora qilsalar, Zarnujiy ham hanafiy faqih sifatida Imom Abu Hanifa va boshqa hanafiy ulamolarining fikrlari va ularning hayotidan olingan misollarga murojaat qilgan. Shu jihatdan asar hanafiy tafakkuridagi ilm haqida, o'rganish va o'qitishga yondashuvning namunasini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta'lim al-mutaallim tariqat al-taallum. – Karachi: Maktaba al-Bushro, 2010.
2. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – T.: Sharh, 2005. – B. 369.